

UZBEKISTAN LAW REVIEW



ISSUE 2
2025

**ЎЗБЕКИСТОН ҚОНУНЧИЛИГИ
ТАҲЛИЛИ**

UZBEKISTAN LAW REVIEW

**ОБЗОР ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

ИЛМИЙ ТАҲЛИЛИЙ ЖУРНАЛ	SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL	НАУЧНО АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
--------------------------------------	--	--

**2025
№2**

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ

БОШ МУҲАРРИР:

Гулямов Саид Саидахарович — юридик
фанлари доктори, профессор.

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ АЪЗОЛАРИ:

Рустамбеков Исламбек Рустамбекович — ю.ф.д.,
профессор.

Ҳўжаев Шохжаҳон Акмалжон ўғли — юридик
фанлар бўйича фалсафа доктори.

Оқюлов Омонбой — ю.ф.д., профессор.

Эргашев Восит Ёқубович — ю.ф.н., профессор.

Махкамов Отабек Мухтарович — ю.ф.д.

Суюнова Дилбар Жолдасбаевна — ю.ф.д., доц.

Мусаев Бекзод Турсунбоевич — ю.ф.д., доц.

Беков Ихтиёр — ю.ф.д., проф.

Бозоров Сардор Сохибжонович — ю.ф.д., проф.
в.б.

Ҳазратқулов Одилбек Турсунович — юридик
фанлари номзоди, доцент.

Самарходжаев Ботир Билялович — ю.ф.д.,
профессор.

Ходжаев Бахшилло Камалович — ю.ф.д.,
профессор.

Нарзиёв Отабек Саъдиевич — ю.ф.д., проф. в.б.

Жолдасова Шахноза Батировна — юридик
фанлар бўйича фалсафа доктори.

Маълумот олиш учун қуйидагиларга мурожаат этиш
сўралади:

**Гулямов Саид Саидахарович,
Рустамбеков Исламбек Рустамбекович**
ТДЮУ, Халқаро хусусий ҳуқуқ кафедраси,
Ўзбекистон Республикаси, Тошкент ш., 100047,
Сайилгоҳ кўчаси, 35. Тел: 233-66-36

"Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили"нинг электрон
нусхаси Интернетдаги www.library-tsul.uz ёки
www.lawreview.uz сайтида жойлаштирилган.

**Журнал 2013 йилдан Ўзбекистон Республикаси
Вазирлар Маҳкамасининг Олий Аттестация
комиссияси журналлари рўйхатига киритилган.**

Ушбу журналда баён этилган натижалар, хулосалар,
талқинлар уларнинг муаллифларига тегишли бўлиб,
Ўзбекистон Республикаси ёки Тошкент давлат юридик
университети сиёсати ёки фикрини акс эттирмайди.

2025 йилда нашр этилди.

Муаллифлик ҳуқуқлари Тошкент давлат юридик
университетига тегишли. Барча ҳуқуқлар ҳимояланган.
Журнал материалларидан фойдаланиш, тарқатиш ва
қўлайлиги Тошкент давлат юридик университети рухсати
билан амалга оширилади. Ушбу масалалар бўйича Тошкент
давлат юридик университети мурожаат этилади.
Ўзбекистон Республикаси, Тошкент ш., 100047, Сайилгоҳ
кўчаси, 35.

ISSN 2181-8118

Масъул котиб: **И. Рустамбеков**

Наشريёт муҳаррири: **Н. Ниязова**

Техник муҳаррир: **Д. Козимов**

Лицензия № 02-0074

Босишга рухсат этилди — 28.06.2025

Наشريёт ҳисоб табоғи — 5

«IMPRESS MEDIA» босмаҳонасида босилди

Адади — 100 нусха.

ИЛМИЙ-ТАҲЛИЛИЙ ЖУРНАЛ

2/2025

Abdumalikov Sharof Mirzaxid o'g'li
TDYU mustaqil izlanuvchisi

**MUALLIFLIK HUQUQI VA TURDOSH HUQUQLARNI
HIMOYA QILISHDA DAVLAT VA JAMOAVIY
BOSHQARUV MEKANIZMLARINING O'ZARO
HAMKORLIGI**

Аннотация. В статье рассматривается распределение полномочий и функций между государственным управлением и организациями коллективного управления в сфере защиты авторских и смежных прав. Для разграничения указанных механизмов предлагается трёхступенчатый тест, основанный на критерии трансакционных издержек. Систематизируются пять форм их взаимодействия: нормативная, институциональная, экономическая, юрисдикционная и информационная. В сравнительном аспекте анализируется опыт Европейского союза, Германии, Великобритании, стран Северной Европы и США в сопоставлении с законодательством Узбекистана. Обосновывается необходимость соотнесения интенсивности государственного контроля со степенью монополизации модели коллективного управления и предлагаются шесть конкретных направлений совершенствования законодательства.

Ключевые слова: авторское право, смежные права, коллективное управление, государственная аккредитация, расширенное коллективное лицензирование, трансакционные издержки, тариф, контроль, цифровой реестр, opt-out.

Abstract. The article examines the distribution of powers and functions between public administration and collective management organisations in the protection of copyright and related rights. A three-step test based on transaction costs is proposed to distinguish the two mechanisms. Five forms of interaction are identified: normative, institutional, economic, jurisdictional and informational. The experience of the European Union, Germany, the United Kingdom, the Nordic countries and the United States is compared with the legislation of Uzbekistan. The article substantiates the need to link the intensity of state supervision to the degree of monopolisation inherent in a collective management model and puts forward six specific proposals for improving national legislation.

Keywords: copyright, related rights, collective management, state accreditation, extended collective licensing, transaction costs, tariff, supervision, digital registry, opt-out.

Mazkur maqolada mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qilishda davlat boshqaruvi hamda jamoaviy boshqaruv tashkilotlari (JBT) o'rtasidagi vakolat va funksiyalarning taqsimlanishi tahlil qilinadi. Davlat va jamoaviy boshqaruv mexanizmlarini bir-biridan ajratish uchun tranzaksion xarajatlar mezoniga asoslangan uch bosqichli test taklif etiladi. Shuningdek, ular o'rtasidagi

hamkorlikning normativ, institutsional, iqtisodiy, yurisdiktsion va axborot shakllari tizimlashtiriladi. Yevropa Ittifoqining 2014/26/EU direktivasi, Germaniya, Buyuk Britaniya, Shimoliy Yevropa davlatlari hamda AQSh tajribasi O'zbekiston qonunchiligi bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Jamoaviy boshqaruv modelining monopollik darajasiga qarab davlat nazoratining intensivligini belgilash taklif etilib, milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha oltita aniq taklif ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: mualliflik huquqi, turdosh huquqlar, jamoaviy boshqaruv, davlat akkreditatsiyasi, kengaytirilgan jamoaviy litsenziyalash, tranzaksion xarajatlar, tarif, nazorat, raqamli reyestr, opt-out.

I. Kirish

Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni samarali himoya qilishda davlat tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy himoya bilan huquq egalari o'zini o'zi tashkil etishi asosida faoliyat yuritadigan jamoaviy boshqaruv mexanizmlari alohida o'rin tutadi. Bir tomondan, davlat qonun normalari, sud qarorlari, ma'muriy va jinoiy javobgarlik choralariga asoslangan majburlov resursiga ega. Ikkinchi tomondan, huquq egalari manfaatlarini birgalikda ifodalovchi jamoaviy boshqaruv tashkilotlari huquqlarni amalga oshirish va ulardan foydalanish uchun haq undirish bilan bog'liq amaliy vazifalarni bajaradi.

Bu ikki mexanizm o'zaro bog'liq bo'lsa-da, ularning vazifalarini bir-birining o'rnini bosuvchi mexanizmlar sifatida baholab bo'lmaydi. Masalan, davlat organining Toshkent shahridagi minglab savdo va xizmat ko'rsatish obyektlarida qaysi fonogrammadan foydalanilayotganini muntazam ravishda aniqlab borishi amaliy jihatdan qiyin. Jamoaviy boshqaruv tashkiloti esa foydalanuvchini o'z-o'zidan shartnoma tuzishga majbur qila olmaydi; bunday hollarda u sud himoyasi va davlat nazorati mexanizmlariga tayanadi. Shu bois mualliflik va turdosh huquqlarni samarali himoya qilish davlat hamda jamoaviy boshqaruvning o'zaro muvofiqlashtirilgan faoliyatini talab qiladi.

Muammo shundaki, milliy qonunchilikda ushbu ikki mexanizm o'rtasidagi funksional chegara yetarlicha aniq belgilanmagan. 2006-yil 20-iyuldagi «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida»gi O'RQ-42-son Qonunda jamoaviy boshqaruv tashkilotlarining huquqiy maqomi va asosiy vakolatlari belgilangan bo'lsa-da, davlatning ular faoliyati ustidan nazorat qilish vakolatlarining chegaralari, tariflarni shakllantirish va kelishish tartibi, shuningdek akkreditatsiya mezonlari qonun darajasida to'liq ochib berilmagan. Natijada mazkur masalalarning muhim qismi qonunosti hujjatlari va amaliyotga bog'lanib qolmoqda.

Maqolaning asosiy maqsadi davlat va jamoaviy boshqaruv mexanizmlarini chegaralash uchun obyektiv mezonni aniqlash hamda ular o'rtasidagi hamkorlikning huquqiy shakllarini tizimlashtirishdan iborat.

Mavzu bo'yicha O'zbekistonda amalga oshirilgan muhim tadqiqotlardan biri I.B. Yakubovaning 2023-yilda himoya qilingan doktorlik dissertatsiyasi bo'lib, unda jamoaviy boshqaruvning ixtiyoriy, majburiy,

prezumpsiyaga asoslangan va kengaytirilgan modellari hamda jamoaviy boshqaruv tashkilotlarining huquqiy maqomi tahlil qilingan [1]. Mazkur maqolada esa asosiy e'tibor boshqa masalaga — davlat va jamoaviy boshqaruv mexanizmlarining o'zaro ta'sir nuqtalari hamda ular o'rtasida vakolatlarni oqilona taqsimlash masalasiga qaratiladi.

Jamoaviy boshqaruvning shakllanishiga, avvalo, huquqiy emas, iqtisodiy ehtiyoj sabab bo'lgan. 1847-yilda Parijdagi «Les Ambassadeurs» kafesida bastakor Ernest Bourget o'z asarining roziligisiz ijro etilayotganini aniqlagan va buning uchun haq to'lashdan bosh tortib, kafe egasiga qarshi da'vo qo'zg'agan. Suddagi g'alaba keyinchalik 1851-yilda SACEM tashkil etilishiga olib kelgan [2]. Mazkur tarixiy voqea jamoaviy boshqaruvning amaliy mohiyatini yaqqol ko'rsatadi: alohida muallifning ko'plab foydalanuvchilarni mustaqil ravishda nazorat qilishi va ulardan haq undirishi ko'pincha iqtisodiy jihatdan samarasizdir.

Shundan kelib chiqib, davlat va jamoaviy boshqaruv o'rtasidagi vakolatlarni chegaralashda birinchi mezon sifatida tranzaksion xarajatlar mezonini taklif etish mumkin. Agar huquqni yakka tartibda amalga oshirish uchun ketadigan xarajatlar — foydalanish faktini aniqlash, foydalanuvchi bilan muzokara olib borish, shartnoma tuzish va haqni undirish xarajatlari — ushbu huquqdan olinadigan daromaddan oshib ketsa, yakka tartibdagi boshqaruvning iqtisodiy samaradorligi pasayadi.

Ushbu mezonni amaliyotda qo'llash uchun quyidagi uch bosqichli testdan foydalanish mumkin. Birinchi savol: foydalanish ommaviy xususiyatga egami, ya'ni u ko'p sonli, alohida olinganda nisbatan past qiymatli va hududiy jihatdan tarqoq foydalanishlardan iboratmi? Ikkinchi savol: huquq egasi foydalanish faktini mustaqil ravishda aniqlash va qayd etish imkoniyatiga egami? Uchinchi savol: foydalanuvchi foydalanishdan oldin tegishli huquq egasini oqilona xarajat evaziga aniqlay oladimi?

Ushbu uch savolning barchasiga salbiy javob berilgan hollarda majburiy yoki kengaytirilgan jamoaviy boshqaruvga ehtiyoj yuzaga keladi. Ikki savolga salbiy javob berilsa, ixtiyoriy jamoaviy boshqaruv modeli yetarli bo'lishi mumkin. Agar salbiy javoblar bittadan oshmasa, huquqni yakka tartibda amalga oshirish iqtisodiy va tashkiliy jihatdan maqsadga muvofiq bo'ladi.

Testning amaliy ahamiyatini ikki vaziyat orqali ko'rsatish mumkin. Kabel tarmog'i orqali qayta uzatishda uchala mezon ham jamoaviy boshqaruv zaruratini ko'rsatadi: kabel operatori bir vaqtning o'zida yuzlab kanallarni uzatishi va har bir asar huquq egasini oldindan aniqlashi amalda qiyin. Shu sababli Yevropa Ittifoqining 93/83/EEC direktivasi 9-moddasida kabel orqali qayta uzatish huquqini jamoaviy boshqaruv orqali amalga oshirish nazarda tutilgan [3]. Bunga qarama-qarshi ravishda, badiiy filmni kinoteatrda namoyish etishda taraflar aniq bo'lib, shartnoma predmeti ham muayyan va tranzaksion xarajatlar nisbatan past. Bunday vaziyatda jamoaviy boshqaruvdan foydalanish majburiyati uchun iqtisodiy asos mavjud emas.

Jamoaviy boshqaruv bozor ehtiyojidan kelib chiqqan ekan, davlatning unga aralashuvi qaysi asosga ega, degan savol tug'iladi. Buning asosiy sabablaridan biri jamoaviy boshqaruv tashkilotlarining tabiiy monopoliya xususiyatidir. Muayyan hududda ayni turdagi huquqlar bo'yicha bir nechta raqobatchi tashkilotlarning parallel faoliyat yuritishi foydalanuvchi uchun tranzaksion xarajatlarni yana oshirishi va jamoaviy boshqaruvning o'zidan ko'zlangan maqsadni susaytirishi mumkin.

Shu bilan birga, monopoliya ikki yo'nalishda xavf tug'diradi. Foydalanuvchi uchun asosiy xavf — iqtisodiy jihatdan asossiz yoki haddan tashqari yuqori tariflarning belgilanishidir. Huquq egasi nuqtayi nazaridan esa yig'ilgan haqning noto'g'ri taqsimlanishi, boshqaruv xarajatlari va ushlab qolinadigan komissiyalarning yetarlicha shaffof bo'lmashligi xavfi mavjud. Masalan, Germaniyada GEMA musiqa asarlari repertuarining juda katta qismini qamrab olgani sababli foydalanuvchining muqobil manbaga murojaat qilish imkoniyati cheklangan. Shu bois Germaniya qonunchiligida bunday tashkilotlar maxsus nazorat rejimiga bo'yundirilgan [4].

Shundan kelib chiqib, davlat ishtirokining asosiy mezon sifatida regulativ subsidiarlik prinsipini ilgari surish mumkin. Uning mazmuni ikki qoidada namoyon bo'ladi: birinchidan, davlat huquq egalari va ularning vakillari mustaqil ravishda hal qila oladigan masalalarga ortiqcha aralashmasligi lozim; ikkinchidan, davlat aralashuvining darajasi jamoaviy boshqaruv modelining monopollik darajasiga mutanosib bo'lishi kerak.

Bu yondashuv davlat nazoratining uch darajasini ajratishga imkon beradi. Ixtiyoriy modelda davlat nazorati asosan ro'yxatdan o'tkazish va yillik hisobotlarni qabul qilish bilan cheklanishi mumkin. Kengaytirilgan modelda akkreditatsiya, majburiy auditorlik tekshiruvi va tariflarning shakllanishi ustidan nazorat kabi qo'shimcha mexanizmlar talab etiladi. Majburiy modelda esa ushbu vositalarga tariflarni tasdiqlash hamda a'zo bo'lmagan huquq egalarga boshqaruvdan chiqish (opt-out) imkoniyatini kafolatlash qo'shiladi. Hozirgi milliy tartibga solishda esa nazorat rejimining jamoaviy boshqaruv modeliga qarab differensiallashuvi yetarli darajada ifodalangan.

Qayd etish kerakki, davlat va jamoaviy boshqaruv tashkilotlari o'rtasidagi munosabatlarni yagona shakl bilan izohlash to'g'ri emas. Ularning hamkorligini kamida beshta mustaqil yo'nalishda ko'rish mumkin.

Normativ shakl. Davlat jamoaviy boshqaruv tashkilotlari faoliyatining huquqiy chegaralarini qonunchilik orqali belgilaydi. Yevropa Ittifoqining 2014-yil 26-fevraldagi 2014/26/EU direktivasi 5-moddasida huquq egalarga bir qator muhim kafolatlar, jumladan, istalgan jamoaviy boshqaruv tashkilotini tanlash, huquqlarning bir qismini yoki ayrim hududlarni boshqaruvdan chiqarish hamda berilgan vakolatni bekor qilish imkoniyati berilgan. Bunda ogohlantirish muddati olti oydan oshmasligi kerak [5]. O'zbekiston qonunchiligida esa huquq egasining boshqaruvdan qisman chiqishi va bunday chiqishning muddati bo'yicha aniq norma mavjud emas.

Institutsional shakl — akkreditatsiya. 2014/26/EU

direktivasining 36-moddasi a'zo davlatlarda jamoaviy boshqaruv tashkilotlari ustidan nazoratni amalga oshiruvchi vakolatli organing mavjud bo'lishini nazarda tutadi [5]. Germaniyada bunday vakolat Germaniya Patent va tovar belgilari idorasiga (DPMA) berilgan bo'lib, jamoaviy boshqaruv faoliyati tegishli ruxsat bilan amalga oshiriladi [4]. O'zbekistonda 2011-yilda tashkil etilgan intellektual mulk agentligi 2019-yilda tugatilgan va uning vazifalari Adliya vazirligiga o'tkazilgan. Hozirgi vaqtda mazkur yo'nalishdagi vazifalar vazirlik tizimidagi intellektual mulk markazi tomonidan amalga oshiriladi. Biroq akkreditatsiyani berish, rad etish yoki bekor qilishning asosiy mezonlari va tartibi qonun darajasida yetarlicha batafsil mustahkamlanmagan.

Iqtisodiy shakl — tariflarni shakllantirish. Davlat va jamoaviy boshqaruv o'rtasidagi munosabatlarning eng bahsli masalalaridan biri aynan tariflar bilan bog'liq. Xalqaro tajribada bu borada, shartli ravishda, uchta yondashuvni ajratish mumkin. Birinchi yondashuvda tarif davlat tomonidan ma'muriy tartibda tasdiqlanadi. O'zbekistonda mualliflik haqining eng kam stavkalari Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 19-yanvardagi 10-son qarori bilan belgilangan. Ikkinchi yondashuvda tarif jamoaviy boshqaruv tashkiloti va foydalanuvchilar uyushmasi o'rtasidagi muzokaralar orqali shakllantiriladi, kelishmovchilik esa maxsus arbitraj organida ko'rib chiqiladi. Germaniyada bunday vazifani DPMA huzuridagi Kelishtiruv palatasi (Schiedsstelle) bajaradi [4]. Uchinchi yondashuvda tarifga oid nizolar maxsus tribunal tomonidan ko'rib chiqiladi. Buyuk Britaniyada 1988-yilgi qonun asosida faoliyat yurituvchi Copyright Tribunal shunday vakolatga ega [6].

Tarifni ma'muriy tartibda tasdiqlash usulining muhim kamchiligi shundaki, davlat organi tarifning iqtisodiy asoslarini — foydalanish hajmi, foydalanilayotgan obyektning qiymati va bozor konyunkturasini — har bir holat bo'yicha mustaqil ravishda chuqur hisoblab chiqishi qiyin. Shu sababli amaliy nuqtayi nazardan muzokara va arbitrajni birlashtirgan model nisbatan maqbulroq ko'rinadi.

Yurisdiktsion shakl. Jamoaviy boshqaruv tashkiloti sudda huquq egalari nomidan, ayrim hollarda esa a'zo bo'lmagan shaxslarning manfaatlarini ham ko'zlab ishtirok etishi mumkin. Davlat esa ma'muriy va jinoiy ta'qib choralari qo'llash vakolatiga ega. Jumladan, Jinoyat kodeksining 149-moddasida mualliflik huquqini buzganlik uchun javobgarlik belgilangan. Shunday qilib, amaliy hamkorlik odatda quyidagicha namoyon bo'ladi: jamoaviy boshqaruv tashkiloti huquqbuzarlikni aniqlash va dalillarni to'plashga ko'maklashadi, davlat organi esa qonunda nazarda tutilgan ta'sir choralari qo'llaydi. Biroq jamoaviy boshqaruv tashkiloti tomonidan to'plangan dalillarning ma'muriy ish yuritishdagi maqomi va ulardan foydalanish tartibi yetarlicha aniq tartibga solinmagan.

Axborot shakli. Raqamlashtirish natijasida davlat va jamoaviy boshqaruv o'rtasidagi hamkorlikning yangi ko'rinishi — axborot almashinuvi va yagona ma'lumotlar infratuzilmasi shakllanmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-avgustdagi 469-son qarori bilan tasdiqlangan

nizomda elektron nazorat nusxasi va yagona baza kabi tushunchalar nazarda tutilgan [1]. Bunda davlat huquqlar haqidagi ma'lumotlar infratuzilmasini yuritishi, jamoaviy boshqaruv tashkilotlari esa ushbu ma'lumotlardan foydalanib litsenziyalash faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

Raqamlashtirish jamoaviy boshqaruvning an'anaviy tuzilmasiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Ilgari tashkilotning asosiy resurslaridan biri uning repertuari haqidagi ma'lumotlar bazasi bo'lgan bo'lsa, endilikda bunday ma'lumotlarning davlat tomonidan yuritiladigan yagona reyestrda ham saqlanishi mumkin. Shu sababli reyestri yuritish va litsenziyalash funksiyalarini bitta subyektda to'liq jamlash maqsadga muvofiq emas.

Buning kamida ikki sababi bor. Agar davlat bir vaqtning o'zida reyestri yuritisa va litsenziya bersa, u xususiy-huquqiy munosabatning bevosita ishtirokchisiga aylanib, o'z faoliyatini o'zi nazorat qiladigan holat yuzaga kelishi mumkin. Aksincha, reyestr to'liq jamoaviy boshqaruv tashkiloti ixtiyorida qolsa, foydalanuvchilar va a'zo bo'lmagan huquq egalari ma'lumotlarning to'g'riligini mustaqil tekshirish imkoniyatidan mahrum bo'lishi mumkin.

AQSh tajribasi mazkur funksiyalarni muayyan darajada ajratish mumkinligini ko'rsatadi. 2018-yildagi Music Modernization Act musiqa asarlarining mexanik huquqlari bo'yicha yagona ma'lumotlar bazasini yuritish va blanket litsenziyalash bilan bog'liq vazifalarni Mechanical Licensing Collective tashkilotiga yuklagan. Shu bilan birga, tashkilotni belgilash vakolati Copyright Office bilan bog'langan va uning maqomi davriy ravishda qayta ko'rib chiqiladi [7]. Demak, operatsion faoliyat xususiy tashkilot zimmasida qolgan holda, uni belgilash va faoliyatini davriy baholashning muhim elementlari davlat vakolatida saqlanadi.

Shimoliy Yevropa davlatlarida keng qo'llaniladigan kengaytirilgan jamoaviy litsenziyalash (extended collective licensing) modeli ham shu mantiqqa yaqin. Qonun akkreditatsiyadan o'tgan tashkilot tomonidan berilgan litsenziyaning ta'sirini ayrim hollarda a'zo bo'lmagan huquq egalarga ham yoyadi. Buning evaziga bunday huquq egalarga boshqaruvdan chiqish huquqi hamda a'zolar bilan teng shartlarda haq olish kafolati beriladi. Mazkur yondashuv Yevropa Ittifoqining 2019/790 direktivasining 8 va 12-moddalarida ham o'z aksini topgan [8].

Ko'rib chiqilgan hamkorlik shakllarining har biri muayyan huquqiy ziddiyatlarni yuzaga keltiradi. Ular orasida to'rtta masala alohida ahamiyatga ega.

Birinchi — akkreditatsiya va raqobat o'rtasidagi ziddiyat. Akkreditatsiya jamoaviy boshqaruv tashkilotining bozordagi mavqeini kuchaytirib, ayrim hollarda monopoliyani huquqiy jihatdan mustahkamlashi mumkin. Bunday vaziyatni yumshatish uchun akkreditatsiyani muayyan muddatga berish, uni davriy qayta ko'rib chiqish va huquq egasining boshqa tashkilotga o'tish imkoniyatini saqlab qolish maqsadga muvofiq.

Ikkinchi — taqsimlanmagan haqning taqdiri. 2014/26/EU direktivasining 13-moddasida yig'ilgan haqni

taqsimlash uchun aniq muddat belgilangan: mablag'lar daromad olingan moliya yili tugaganidan keyin to'qqiz oy ichida taqsimlanishi kerak. Agar uch yil davomida huquq egasini aniqlashning imkoni bo'lmasa, tegishli summa taqsimlanmaydigan mablag' sifatida e'tirof etiladi va uning keyingi taqdiri a'zolarining umumiy yig'ilishi qarori asosida hal qilinadi [5]. O'zbekiston qonunchiligida esa bunday aniq muddatlarning mavjud emasligi huquq egalariining manfaatlarini himoya qilish nuqtayi nazaridan muayyan bo'shliqni yuzaga keltiradi.

Uchinchisi — davlat nazoratining chuqurligi. Davlat organining jamoaviy boshqaruv tashkilotining repertuari yoki haqni taqsimlash metodikasini bevosita tasdiqlashi xususiy-huquqiy avtonomiya chegaralarini asossiz toraytirishi mumkin. Shu sababli davlat nazorati, avvalo, moliyaviy shaffoflikka qaratilishi lozim. Bunda yig'ilgan mablag'lar, ushlab qolingani komissiya miqdori, taqsimlangan va taqsimlanmagan qoldiqlar hamda boshqaruv xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlarning ochiqligi muhim ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchisi — a'zo bo'lmagan huquq egalariining huquqiy holati. Kengaytirilgan jamoaviy boshqaruv sharoitida bunday shaxslarning huquqlari ularning alohida rozilgisiz boshqarilishi mumkin. Shu sababli ularning manfaatlarini muvozanatlashtirish uchun kamida ikki kafolat zarur: boshqaruvdan chiqish huquqi va jamoaviy boshqaruv tashkiloti a'zolari bilan teng shartlarda haq olish imkoniyati. Bunday yondashuv xalqaro mualliflik huquqi tizimidagi umumiy muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi tahlil shuni ko'rsatadiki, davlat va jamoaviy boshqaruv mexanizmlari o'zaro raqobatchi emas, balki mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilishning yagona tizimidagi ikki turli qatlamdir. Jamoaviy boshqaruv asosan tranzaksiya va operatsion funksiyalarni bajaradi, davlat esa huquqiy kafolat, nazorat va majburlov funksiyalarini ta'minlaydi. Shuning uchun ularning vakolatlarini tasodifiy yoki faqat ma'muriy ehtiyojdan kelib chiqib emas, balki obyektiv tranzaksiya xarajatlar mezonini asosida chegaralash maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin.

1. «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida»gi Qonunda jamoaviy boshqaruv qo'llaniladigan obyektlar doirasini belgilash mezonini sifatida yuqorida taklif etilgan uch bosqichli testni mustahkamlash.

2. Jamoaviy boshqaruv tashkilotlarini davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish mezonlari, akkreditatsiyani rad etish va bekor qilish asoslarini qonun darajasida belgilash hamda akkreditatsiyani muayyan muddatga berish tartibini joriy etish.

3. Mualliflik haqi tariflarini faqat ma'muriy tasdiqlashga asoslangan tartibdan muzokara va arbitraj modeliga bosqichma-bosqich o'tkazish. Bunda tarif jamoaviy boshqaruv tashkiloti va foydalanuvchilar birlashmasi o'rtasidagi kelishuv asosida shakllantirilib, kelishmovchiliklar maxsus vakolatli organ tomonidan ko'rib chiqilishi mumkin.

4. Jamoaviy boshqaruv tashkilotlari uchun yillik shaffoflik hisobotini majburiy joriy etish. Hisobotda yig'ilgan mablag'lar, ushlab qolingani komissiya foizi, taqsimlangan va taqsimlanmagan summalar hamda boshqaruv xarajatlari alohida ko'rsatilishi lozim.

5. Yig'ilgan haqni taqsimlash uchun qat'iy muddatni — moliya yili tugaganidan keyin to'qqiz oy — hamda huquq egasi aniqlanmagan mablag'ni taqsimlanmaydigan summa sifatida e'tirof etish uchun uch yillik muddatni belgilash.

6. A'zo bo'lmagan huquq egalariiga jamoaviy boshqaruvdan qisman yoki to'liq chiqish (opt-out) huquqini va uni amalga oshirish tartibini qonunda mustahkamlash. Bunda ogohlantirish muddati olti oydan oshmasligi lozim.

Taklif etilayotgan o'zgartirishlarning maqsadi davlat nazoratini shunchaki kuchaytirish emas. Aksincha, nazoratning aniq chegaralarini belgilash, uni moliyaviy shaffoflik, huquq egasining tanlov erkinligi va jamoaviy boshqaruvning samaradorligi kabi masalalarga yo'naltirish ko'zda tutiladi. Natijada davlatning tartibga soluvchi roli bilan jamoaviy boshqaruvning xususiy tashabbusga asoslangan tabiati o'rtasida maqbul muvozanatni ta'minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yakubova I.B. Mualliflik huquqida mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarishni takomillashtirish: yuridik fanlar doktori (DSc) diss. avtoreferati. — Toshkent: TDYU, 2023. — 232 b.
2. Ricketson S., Ginsburg J. International Copyright and Neighbouring Rights: The Berne Convention and Beyond. 2nd ed. — Oxford: Oxford University Press, 2006.
3. Council Directive 93/83/EEC of 27 September 1993 on the coordination of certain rules concerning copyright and rights related to copyright applicable to satellite broadcasting and cable retransmission // OJ L 248, 06.10.1993.
4. Gesetz über die Wahrnehmung von Urheberrechten und verwandten Schutzrechten durch Verwertungsgesellschaften (Verwertungsgesellschaftengesetz — VGG) vom 24. Mai 2016 // BGBl. I S. 1190.
5. Directive 2014/26/EU of the European Parliament and of the Council of 26 February 2014 on collective management of copyright and related rights and multi-territorial licensing of rights in musical works for online use in the internal market // OJ L 84, 20.03.2014.
6. Copyright, Designs and Patents Act 1988 (United Kingdom), Chapter VIII.
7. Orrin G. Hatch — Bob Goodlatte Music Modernization Act, Pub. L. No. 115-264 (2018) // 132 Stat. 3676.
8. Directive (EU) 2019/790 of the European Parliament and of the Council of 17 April 2019 on copyright and related rights in the Digital Single Market // OJ L 130, 17.05.2019.
9. O'zbekiston Respublikasining «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida»gi 2006-yil 20-iyuldagi O'RQ-42-son Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
10. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (ikkin-

chi qism). 1065-modda.

11. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. 149-modda.

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 19-yanvardagi 10-son qarori.

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-avgustdagi 469-son qarori.

14. Berne Convention for the Protection of Literary and Artistic Works of 9 September 1886 (as amended on 28 September 1979), Article 9.

15. Gervais D. (ed.) Collective Management of Copyright and Related Rights. 4th ed. — Alphen aan den Rijn: Kluwer Law International, 2021